

**MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN NUTQNI
RIVOJLANTIRISH FAOLIYATI UCHUN ISHLANMA**

Toshpo'latova Naima Toxirjon qizi

Mavzu: Kitob tarixi va inson.

Ta'limiylar maqsad; Bolalarga kitob tarixi haqida kengroq ma'lumot berish. .Har bir kitobning yaratishda uning o'z maqsadi va yo'nalishi borligi haqida, kitob insonning eng yaqin do'sti, maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbai ekanligini, kitob o'qish tinglash orqali nutq tafakkurini shakllantirishini bolalar ongiga singdirish. Bolalarga kitob va kitobxonlikning ahamiyati, bolalarga qog'ozning tarkibi, uning turlari qog'ozning kelib chiqishi haqida tushuncha berish,

Tarbiyaviy maqsad: Kitobga bo'lgan muhabbatini, qiziqishlarini oshirish. Kitobni asrab-avaylash, uni yirtmaslikka, kitobga chizmaslikka o'rgatish. Ko'p kitob o'qigan bola dono va aqilli bo'lishi, kitob o'qish orqali yaxshi va yomonni, rost va yolg'oni ajratishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Kitob haqidagi bilimlarini kengaytirib, mustaqil fikrlesh qobilyatlarini va rivojlanish markazlarida faoliyat yurita olish, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini o'stirish, tafakkurlarini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: Turli xil ertak kitoblar, rasmli kitoblar, qadimiy kitoblar rasmlari.

Faoliyatni tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar:

1. Interfaol metodlar: "Blis-so'rov", "Ijodiy ish", "Suhbat"
2. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Galeriya", "Zinama-zina"
3. Grafik organayzer: "Klaster", "Nima uchun", "Qanday?"

Bolalar bilimini mustahkamlash uchun "Blis-so'rov" savollari.

1. Qanday kitob turlarini bilasiz?
2. Sizning sevimli kitobingiz?
3. Ota-onangiz sovg'a qilgan kitobingiz nomini bilasizmi?
4. "Kitob misoli xazina" iborasini qanday tushunasiz?

"Galeriya" strategiyasi: Tarbiyachi tomonidan xona bo'ylab mavzuga oid rasmlar joylashtiriladi va tarbiyalanuvchilar o'zlari tanlov asosida rasmlari bo'yicha qisqa hikoya tuzishlari taklif etiladi.

Foydalaniladigan ta'lrim texnologiyalari:

1. Muammoli ta'lrim texnologiyalari.
2. Interfaol ta'lrim texnologiyalari.
3. Kompyuter ta'lrim texnologiyalari.
4. Hamkorlik ta'lrim texnologiyalari.

5. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari.

6. O’yin texnologiyasi.

Qanday diogrammasi: ”Kitob o’zida butun olamning rang-barangligini ko’rsatib beruvchi oynadir” ta’riflarda izohlang!



5. Faoliyatning borishi: Qat qat qatlama, aqling bo‘lsa tashlama. Bu nima bolajonlar? Bolalar: Kitob! Barakalla bolalar. Bugun sizlar bilan biz kitob bizning do’stimiz, kitob bilimlar xazinasi ekanligi, Kitobning yaratilish tarixi, inson hayotida kitobning o’rni haqida suhbatlar olib boramiz. Hammangiz yangi ma’lumotlar olishga tayyormisiz.

Tarbiyachi: Inson ma’naviyatining yuksalishida, dunyo qarashining shakllanishida kitobning o’rni beqiyosdir. U nafaqat bilim bulog’i, tafakkur xazinasi, balki insonga do’st, to’g’ri yo’l ko’rsatuvchi tarbiyachi hamdir. Shuning uchun ham kitob qadrlanadi, U qalbga ajoyib nur, aqlga qudrat beruvchi vositadir. Kitobga oshno bo’lgan odam o’z umrini chiroyli o’tkazishga, odamlarga faqatgina yaxshilik tilashga harakat qiladi. Allomalar va buyuklar ham barcha muvaffaqiyatlari, yaratgan kashfiyotlari uchun kitobdan minnatdor bo’ladilar. Kitoblar ming yillik tarixga ega. Zamonaviy kitobga yo'l uzoq edi. Turli xil xalqlarning yozish usullari va materiallari turlicha edi. Ular tosh taxtasida so’zlar o'yib yozilgan, palma barglarida chizishgan. Loydan yasalgan lavhalar, papirus, pergament, qayin po'stlog'idagi "kitoblar" bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan. Odamlar qog'ozni tayyorlashdan oldin yozishni o'rgandilar va shuning uchun ular toshdan foydalanganlar - ular ustiga harflar yozib qo'yishgan. Ammo tosh yozish uchun noqulay materialdir, chunki u qattiq, qattiq va og'ir. Odamlar qulayroq yozuv materiallarini izlay boshladilar va loydan foydalanishga qaror qilishdi. Loydan yasalgan lavhalarga yozgan birinchi odamlar Yunonistonda bo'lgan. Hali nam va y

u

m

s


h

o


q



Kitob yozish uchun bunday lavhalar juda ko'p edi - bir necha yuz. Loydan qilingan kitoblar juda noqulay va og'ir edi. Ularni o'qish uchun uyga olib borolmagan, chunki lavhalar juda ko'p. Har bir kitob bir necha o'n kilogrammni tashkil etgan. Shuning uchun ular loydan tayyorlangan kitoblarni faqat kutubxonada o'qiganlar.



Shuningdek, Gretsiyada ular mum bilan to'ldirilgan yog'och taxtalardan foydalanganlar.



Bunday kitob mum bilan to'ldirilgan o'rtada tunika bilan birga mahkamlangan qator taxtalardan iborat edi. Qadimgi Misrda papirusda yozganlar.



Papirus - baland va qalin tanasi bo'lgan daryo qamishidir. Papirus novdalari ingichka bo'laklarga bo'linib, bir-birining ustiga qo'yilib, yelim bilan yog'langan, yog'och bolg'a bilan dazmollangan, quyoshda quritilgan va naychaga o'ralgan.




Qadimgi Rossiyada ular qayin po'stida yozganlar. Qayin po'stlog'i - qayin po'stining tashqi qismi. Qayin po'stlog'iga yozish qulay, ammo kitoblarga yaroqsiz edi.



Pergam shahrida pergament ixtiro qilindi - shahar nomi bilan atalgan.



U buzoqlar va qo'yrlarning terisidan qilingan.



Butun podalar bitta kitobni chiqarish uchun ketgan. Odamlar uni bir necha yil davomida qo'l bilan yozganlar. Pergament kitoblari juda qimmat edi.



Keyin pergamentga qaraganda ancha ingichka bo'lgan yangi material paydo bo'ldi. Unga yozish juda oson edi. Bu qog'oz. Qog'oz tayyorlash retsepti Xitoyda ixtiro

Asrlar o'tgandan keyingina Evropa bu mo"jizani qanday qilishni bilib oldidi.

Birinchi bosma kitoblar Germaniyada paydo bo'ldi. Zamonaviy bosib chiqarish usuli nemis tomonidan ixtiro qilingan Yoxannes Gutenberg.

Kitob insoniyatning eng katta xazinasi, donolik ombori, bilim manbai.



Dunyodagi eng og‘ir kitob Britaniya muzeyida saqlanuvchi 17-asrga oid geografikatlasdir. Uning bo‘yi 1,9 metr, og‘irligi 320 kg. Dunyodagi eng mashhur kitob qahramoni Napoleondir. U haqda 10.000 dan ortiq turli janrdagi kitoblari yozilgan. Dunyoda sotiladigan kitoblarning yarmidan ko‘pini 45 yoshdan oshgan kishilar sotib oladilar.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan olib boriladigan ishlar.

1. So’zlar mushtarakligini topish.- Qayro’gi, kitob, aql

- Misoli, kitob, xazina
- farzandlaridir, aql, kitoblar
- qanotsiz qush, kitobsiz aql

2. Topishmoqlar aytish

- Turgani bilim do’stim
- Tilsiz aql o’rgatar. (Kitob)

Suhbati shirin do’stim. (Kitob)

- daraxt emas yaproqli,
- Ko’ylak emas etakli,
- Odam emas so’zlaydi,
- Turli kuylar kuylaydi. (Kitob)

.3.Umen savoli. Kitob boylik. Lekin sotib olingani emas,o'qilgani. (Asqad Muxtor). Bu hikmatli soz'ni qanday tushunasiz?

Tarbiyachi :Bolajonlar. kitoblar haqida she'rlar bilamizmi? Kim aytib beradi.

Har yaxshilik ,har yomon

Qat-qatida joylashgan

Shuning uchun deymanki

Kitob mening do'stimsan

Barcha bilmas qahramon

El-yurtlarga men oshno

Armonlarim tarqatib ,

Qoni bo'sh birodat

Shuning uchun deymanki

Kitob mening do'stimsan.

Raxmat bolalar kitob haqida ko'plab bilimlar oldingiz kelinglar endi jismoniy daqiqaga barchani taklif qilaman.

Quyoshli yurtda biz,

O'ynab-o'ynab yashaymiz.

Kel do'stim, kel sen,

Birga-birga o'ynaymiz

Faoliyat yakunida bolalar rag'batlantiriladi ularga kitoblar sovg'a qilinadi.